

# MUHANDISLIK

## & IQTISODIYOT

# №4

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

# 2026 APREL



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari  
08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™  
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic  
Resource  
Index  
ResearchBib

ISSN INTERNATIONAL  
STANDARD  
SERIAL  
NUMBER  
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS  
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ  
БИБЛИОТЕКА  
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ  
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ  
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА  
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



# **muhandislik** **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, aprel.

## **Bosh muharrir:**

**Zokirova Nodira Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

## **Bosh muharrir o'rinbosari:**

**Shakarov Zafar G'afrovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

## **Tahrir hay'ati:**

**Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich**, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Sharipov Kongratbay Avezimbetovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Shaumarov Said Sanatovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Turayev Bahodir Xatamovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Nasimov Dilmurod Abdulloyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Allayeva Gulchexra Jalgasovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Arabov Nurali Uralovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Xamrayeva Sayyora Nasimovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bobonazarova Jamila Xolmurodovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Irmatova Aziza Baxromovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

**Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Amanov Otabek Amankulovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Qurbonov Samandar Pulatovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Tabayev Azamat Zaripbayevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sxay Lana Aleksandrovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Ismoilova Gulnora Fayzullayevna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Kasimova Nargiza Sabitdjanovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Kalanova Moxigul Baxritdinovna**, dotsent

**Ashurzoda Luiza Muxtarovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

**Bauyetdinov Majit Janizaqovich**, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

**Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li**, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sultonov Shavkatjon Abdullayevich**, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

**Jo'raeva Malohat Muhammadovna**, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

**Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

**Kalonova Moxigul Baxritdinovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

**Mirzayev Kulmamat Djanzakovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

**Karimova Nilufar Sadirdin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Norboyev Odil Abrayevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Nasimov Dilmurod Abdulloyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Mirzayev Kulmamat Djanzakovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Karimova Nilufar Sadirdin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Pardaev Umidjon Uralovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

# muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellashtirish
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK  
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

**Muassis:** "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

**Hamkorlarimiz:**

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



# MUNDARIJA

STRATEGIC INTEGRATION OF BUSINESS PLANNING AND FORECASTING IN INDUSTRIAL ENTERPRISES.....	11
<b>Sharipov K.A., Ismatullayev T.R.</b>	
ВКЛАД БАНКОВСКОЙ СИСТЕМЫ В СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ МАХАЛЛЕЙ РЕСПУБЛИКИ КАРАКАЛПАКСТАН: МЕХАНИЗМЫ, ДИНАМИКА И СТРАТЕГИЧЕСКИЕ ОРИЕНТИРЫ .....	21
<b>Бабаназарова Гульзар Зиуатдиновна</b>	
BUDJET TASHKILOTLARIDA XARAJATLARNI REJALASHTIRISH VA MOLIYAVIY NAZORATNI TASHKIL ETISH.....	27
<b>Karayev Payzillaxon Yusufxonovich</b>	
FERMER XO'JALIKLARINI MOLIYAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHDA SUBSIDIYA AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH.....	32
<b>Xakimov Zafar Ibragimovich</b>	
IQTISODIY O'SISHGA ERISHISHDA DAVLAT INNOVATSION VA INVESTITSION SIYOSATINING O'RNI .....	38
<b>Xaydarova Yorqinoy Asqar qizi</b>	
QURILISH SANOATIDA KORXONALARNI MOLIYALASHTIRISHNING NAZARIY KONSEPSIYALARI VA ZAMONAVIY YONDASHUVLARI.....	44
<b>Igitov Jurabek Kuzibekovich</b>	
ОСОБЕННОСТИ ВЫБОРА СТРАТЕГИИ РАЗВИТИЯ ПРЕДПРИЯТИЙ МЕТАЛЛУРГИЧЕСКОГО КОМПЛЕКСА .....	50
<b>Абдуллаева Матлуба Нематовна, Акбарова Муфаррах Мухитдиновна</b>	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ КОМПЛЕКС-КОНТРОЛЯ В КОМПАНИЯХ С ГОСУДАРСТВЕННЫМ УЧАСТИЕМ В УЗБЕКИСТАНЕ .....	56
<b>Халтурдиев Айтмурат Маратович</b>	
O'ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING ICHKI BELGILARI .....	64
<b>Saatova Lolaxon Ergashevna</b>	
INNOVATSION YONDASHUVLAR ASOSIDA OZIQ-OVQAT KORXONALARIDA RAQOVBATBARDOSHLIKNI OSHIRISH MEKANIZMLARI .....	71
<b>Pulatov Abdullo</b>	
MAJBURIY IJRO ETISH CHORALARINI TAKOMILLASHTIRISH: MILLIY VA XORIJIY TAJRIBA.....	76
<b>Axmedov Zafarjon Zokirjon</b>	
МОДЕЛЬ ИНТЕГРИРОВАННОЙ СИСТЕМЫ ESG-ТРАНСФОРМАЦИИ И ЭКОНОМИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ ЕЁ РЕАЛИЗАЦИИ НА ПРЕДПРИЯТИИ ПО ПРОИЗВОДСТВУ ПОЛИМЕРНОЙ УПАКОВКИ .....	80
<b>Ташпулатов Дильмурад Рустамович</b>	
KORPORATIV KORXONALARDA KAPITALNI BUDJETLASHTIRISH JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	85
<b>Latipova Shaxnoza Maxmudovna</b>	
INNOVATSION MENEJMENTDA KOMMUNIKATSIYA VA TASHKILY MOSLASHUVCHANLIKNING ROLI: O'ZBEKISTON SHAROITI MISOLIDA .....	92
<b>Atamatov Abdualil Salomovich</b>	
QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARINING AHAMIYATI VA UNING SALOHİYATINI BELGILOVCHI OMILLAR .....	97
<b>Qodirov Baxodir Tursunovich, To'rayev Qaxramon Zokirjonovich</b>	



NAMANGAN VILOYATIDA AYOLLAR TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA TADBIRKORLIK MUHITINI BAHOLASH .....	103
<b>Raximova Moxigul Isroiljonovna</b>	
O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB ETISH BILAN BOG'LIQ MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI .....	107
<b>Davitova Shaxzoda Doniyor qizi</b>	
ANALYSIS OF THE FORMATION OF MARKET DEMAND AND THE ESTABLISHMENT OF EQUILIBRIUM IN A MARKET ECONOMY .....	112
<b>Kamilova Nargiza</b>	
BO'LAJAK FIZIKA O'QITUVCHILARINI NANOTEXNOLOGIYA SOHASIDAGI BILIMLARNI TAQDIM ETISHGA VA O'QITISHGA TAYYORLASH METODIKASI .....	115
<b>Sottarov Abdulvali Umirqulovich</b>	
INTEGRATING AI INTO STRATEGIC MANAGEMENT IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS .....	120
<b>Uktamova Durdona Bakhtiyor qizi, Sultonali Umaraliyevich Mekhmonov</b>	
BARQAROR RIVOJLANISH SHAROITIDA IJTIMOYIY HISOBOTLAR VA ULARNING AHAMIYATI .....	130
<b>Sayfullayev Mexroj Sayfullayevich</b>	
SANOAT KLASTERINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING USLUBIY JIHATLARI.....	135
<b>Satvoldiyev Ulugbek Kamilovich</b>	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA TIJORAT BANKLARI LIKVIDLIGINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISHNING INNOVATSION YONDASHUVLARI .....	140
<b>Yangiboev Rustam Berdiyrovich</b>	
MINTAQA IQTISODIY O'SISH DRAYVERLARINI RIVOJLANTIRISHDA MOLIYAVIY XAVFLARNI BOSHQARISH MEKANIZMLARI.....	145
<b>Turopova Nigora Xolmurod qizi</b>	
ЭКОЛОГИЯ ТУРИСТА КАК МЕТОД СОЗДАНИЯ КОМФОРТНОЙ И УСТОЙЧИВОЙ СРЕДЫ ДЛЯ ПУТЕШЕСТВЕННИКОВ.....	149
<b>Наурызбаев Алиакбар Рустамович</b>	
BINO VA INSHOOTLARNI BARPO ETISHDA PREFABRIKATSIYALASHGAN HAMDA MODULLI QURILISH TIZIMLARINI AQLLI BOSHQARUV ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH .....	152
<b>Solijonov Javoxirmirzo Obidjon o'g'li</b>	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA AKSIYADORLIK TIJORAT BANKLARIDA KORPORATIV BOSHQARUVNI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH .....	163
<b>Saidaxmedova Aida Mirzayevna</b>	
O'ZBEKISTONDA KO'CHAT YETISHTIRISHNING HOZIRGI HOLATI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.....	169
<b>Abdufarmonov Farrux Faxriddinovich</b>	
O'ZBEKISTONDA EKSPORTGA YO'NALTIRILGAN QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI SIFATI VA XALQARO STANDARTLARGA MUVOFIQLIGI TAHLILI .....	174
<b>Safarova Muxabbat Radjabovna</b>	
TIJORAT BANKLARI DEPOZIT SIYOSATI VA DEPOZIT BAZASI DINAMIKASINING BANK LIKVIDLIGIGA TA'SIRI .....	178
<b>Sulaymanov Samandarboy Adhambek o'g'li</b>	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA ISLOMIY MOLIYANING BANK TIZIMIGA INTEGRATSIYASI: MUAMMOLAR, IMKONIYATLAR VA TRANSFORMATSIYA YO'NALISHLARI .....	186
<b>Adilov Zuxriddin Marip o'g'li</b>	
SAMARQAND VILOYATI SANOATINING HUDUDIY TARKIBINI TAKOMILLASHTIRISHNING AYRIM MASALALARI.....	190
<b>Uralov Eliboy Omonovich</b>	



DIVERSIFIKATSIYALASHUV ASOSIDA QURILISH TARMOG'I RIVOJLANISHINI KO'P OMILLI BOG'LANISHLAR ASOSIDA MODELLASHTIRISH.....	194
<b>Yembergenova Aynur Aydosbaevna</b>	
ЩЕБЕНОЧНО-МАСТИЧНЫЙ АСФАЛЬТОБЕТОН В КИТАЕ: СОСТАВ, СВОЙСТВА, ИННОВАЦИИ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ.....	201
<b>Карабаев Абдужаббор Мелиевич, Занг Хайфей</b>	
TADBIRKORLIK FAOLIYATIDA SUBYEKTIV RISKNI SHAKLLANTIRUVCHI KOGNITIV OMILLAR VA ULARNI BOSHQARISH MEKANIZMLARI .....	205
<b>Abduxamid Abdumalikovich Bektemirov</b>	
HOMILADOR AYOLLAR UCHUN MAXSUS KIIYIMLARNI LOYIHALASHDA ISTE'MOLCHILAR TALABLARINI O'RGANISH .....	211
<b>D.Sattarova, U.Vakhidova, D.Madiyarovna</b>	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA AHOLI DAROMADLARIGA TA'SIR ETUVCHI STATISTIK INDIKATORLAR TIZIMINING METODOLOGIK ASOSLARI VA ULARNING TAHLILIIY IMKONIYATLARI .....	217
<b>Atayev Jaxongir Erkinovich</b>	
KICHIK BIZNES INVESTITSION KREDITLARINI TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN MOLIYALASHTIRISH.....	221
<b>M.O.Yuldoshova</b>	
HUDUDNING "YASHIL IQTISODIYOT" ASOSIDA RIVOJLANISHINI TADQIQ ETISH: KO'RSATKICHLAR TIZIMI VA BAHOLASH USULLARI .....	226
<b>Shomirzayev Abdug'affor Abdujabbor o'g'li</b>	
O'ZBEKISTONDA SUV XO'JALIGI TIZIMIDAGI QAYTA TIKLANUVCHI HAVZALAR .....	231
<b>To'rayev Rasul Nortoijievich, Seytov Aybek Jumabayevich, Uteuliyev Niyatbay Uteuliyevich, Haydarova Roziya Davronovna</b>	
KORXONALAR IQTISODIY BARQARORLIGINING NAZARIY MODELLARI VA SINERGETIK YONDASHUV ASOSIDA BAHOLASH MEKANIZMLARI .....	236
<b>Iminova Nargizaxon Akramovna</b>	
TIJORAT BANKLARINING INVESTITSIYA SIYOSATI VA QIMMATLI QOG'OZLAR PORTFELINI BOSHQARISH STRATEGIYALARI .....	241
<b>Abduvaliyev Sanjar Abdurahmonovich</b>	
PAXTA VA MEVA-SABZAVOT YETISHTIRUVCHI FERMERLARDA TAVAKKALCHILIK XULQ-ATVORINING QIYOSIIY TAHLILI: ISTIQBOL NAZARIYASI ASOSIDA.....	249
<b>Tadjiyev Abdusame Abduhamidovich</b>	
ФОРМИРОВАНИЕ МАРКЕТИНГОВОЙ СТРАТЕГИИ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ОРГАНИЗАЦИИ В СОВРЕМЕННЫХ УСЛОВИЯХ.....	253
<b>Алиев Абдулазиз Исмаилович, Кахрамонова Азиза Шухрат кизи</b>	
QQS TIZIMI SAMARADORLIGINI XALQARO INDIKATORLAR ASOSIDA BAHOLASH .....	259
<b>Eshkarayev Bobir Chariyevich</b>	



# QQS TIZIMI SAMARADORLIGINI XALQARO INDIKATORLAR ASOSIDA BAHOLASH



**Eshkarayev Bobir Chariyevich**

Termiz davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi  
ORCID: 0009-0002-2301-0474

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada qo'shilgan qiymat solig'i (QQS) tizimining samaradorligini baholashda qo'llaniladigan zamonaviy xalqaro indikatorlar va ularning iqtisodiy mazmuni yoritilgan. Tadqiqot davomida O'zbekiston Respublikasining 2012–2024-yillardagi makroiqtisodiy ko'rsatkichlari asosida VAT Productivity, Implicit VAT Rate hamda VAT Revenue Ratio (VRR) indikatorlari hisoblab chiqildi. Olingan natijalar ayrim IHTT mamlakatlari ko'rsatkichlari bilan qiyosiy tahlil qilinib, mamlakatda amalga oshirilayotgan soliq islohotlarining samaradorligi baholandi.

**Kalit so'zlar:** QQS, soliq samaradorligi, VAT Productivity, Implicit VAT Rate, C-efficiency, VRR, soliq ma'murchiligi, YaIM, soliq bazasi.

**Abstract.** This article highlights modern international indicators used in assessing the effectiveness of the value-added tax (VAT) system and their economic content. During the study, based on the macroeconomic indicators of the Republic of Uzbekistan for 2012-2024, the indicators VAT Productivity, Implicit VAT Rate, and VAT Revenue Ratio (VRR) were calculated. The obtained results were compared with the indicators of some OECD countries, and the effectiveness of the tax reforms being implemented in the country was assessed.

**Keywords:** VAT, tax efficiency, VAT Productivity, Implicit VAT Rate, C-efficiency, VRR, tax administration, GDP, tax base.

**Аннотация.** В данной статье освещены современные международные индикаторы, используемые при оценке эффективности системы налога на добавленную стоимость (НДС), и их экономическое содержание. В ходе исследования были рассчитаны показатели VAT Productivity, Implicit VAT Rate и VAT Revenue Ratio (VRR) на основе макроэкономических показателей Республики Узбекистан за 2012-2024 годы. Полученные результаты были сравнительно проанализированы с показателями некоторых стран ОЭСР и оценена эффективность проводимых в стране налоговых реформ.

**Ключевые слова:** НДС, налоговая эффективность, VAT Productivity, Implicit VAT Rate, C-efficiency, VRR, налоговое администрирование, ВВП, налоговая база.

## KIRISH

QQS zamonaviy soliq tizimlarida davlat budjeti daromadlarini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Jahon amaliyotida ushbu soliq turi fiskal barqarorlikni ta'minlovchi asosiy manbalardan biri hisoblanadi. Ko'plab mamlakatlarda QQS umumiy soliq tushumlarining sezilarli qismini tashkil etadi. Shu boisdan QQS mexanizmining samaradorligini baholash, uning iqtisodiyotga ta'sirini aniqlash va soliq ma'murchiligini takomillashtirish masalalari ilmiy tadqiqotlarda dolzarb yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, bir xil soliq stavkasi mavjud bo'lgan mamlakatlarda ham QQS tushumlarining YaIMdagi ulushi keskin farq qiladi. Bu esa soliq imtiyozlari hajmi, yashirin iqtisodiyot darajasi hamda soliq ma'murchiligi sifati bilan izohlanadi. Shu sababli QQS samaradorligini baholashda faqat tushum hajmini tahlil qilish yetarli emas, balki maxsus xalqaro indikatorlardan foydalanish zarur.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

QQS tizimi samaradorligini baholash masalalari xalqaro va mahalliy ilmiy adabiyotlarda keng o'rganilgan. Xususan, L. Ebrill, M. Keen, J.-P. Bodin va V. Summers tadqiqotlarida QQS tizimining nazariy asoslari, uning fiskal barqarorlikni ta'minlashdagi o'rni hamda samaradorlikni baholash mezonlari yoritilgan. Ushbu tadqiqotlarda QQSning ideal modeli barcha yakuniy iste'molni yagona stavkada soliqqa tortishga asoslanishi ta'kidlanadi.

M. Keen tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlarda QQS samaradorligini baholashda C-efficiency indikatorining nazariy asoslari ishlab chiqilib, u amaldagi tizimning ideal modeldan og'ishini aniqlovchi asosiy mezon sifatida talqin etiladi. Shuningdek, E. Hutton tomonidan ishlab chiqilgan RA-GAP metodologiyasi QQSdagi yo'qotishlarni (VAT gap) aniqlash va tahlil qilishda muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

So'nggi yillarda QQS samaradorligini baholash masalasi O'zbekiston misolida ham tadqiq etilmoqda. Jumladan, J. M. Urazmatov tadqiqotida QQS mexanizmi samaradorligi VAT productivity, VAT flexibility va C-efficiency indikatorlari asosida baholanib, mamlakatda soliq imtiyozlari va ma'murchilik muammolari mavjudligi qayd etilgan.

I. M. Niyazmetov tadqiqotida esa QQS samaradorligini baholashda "VAT gap" konsepsiyasi qo'llanilib, C-efficiency asosida compliance gap va policy gap komponentlari ajratilgan hamda O'zbekistonda soliq tushumlarining muayyan qismi yo'qotilayotgani ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

J. Yusupov tadqiqotida QQS gap tahlili asosida soliq to'lovchilar sonining keskin oshishiga qaramay, tushumlar mutanosib o'smaganligi va bu holat soliq ma'murchiligi samaradorligi bilan bog'liqligi ko'rsatilgan.

Shuningdek, IHTT hisobotlarida VRR (VAT Revenue Ratio) indikatorini asosida turli mamlakatlarda QQS samaradorligi qiyosiy baholanib, soliq bazasi qamrovi va ma'muriy samaradorlik darajasi tahlil qilingan.

Mavjud ilmiy ishlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ularda asosan alohida indikatorlar yoki QQS gap masalasiga urg'u berilgan. Mazkur maqolada esa ushbu yondashuvlardan farqli ravishda QQS samaradorligi bir nechta xalqaro indikatorlar asosida kompleks baholangan hamda uzoq muddatli dinamikada tahlil qilingan. Ushbu maqolada yoritilgan masalalar ham mavjud tadqiqotlarni to'ldirib, QQS tizimi samaradorligini baholashda kompleks empirik yondashuvni taklif etadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda QQS tizimi samaradorligini baholash uchun kompleks ilmiy metodologiyadan foydalanildi. Tadqiqotning nazariy asosini xalqaro tashkilotlar – Xalqaro Valyuta Jamg'armasi (XVJ), IHTT hamda Jahon banki (JB) tomonidan ishlab chiqilgan metodologik yondashuvlar tashkil etdi. Tadqiqotda taqqoslama tahlil, statistik tahlil, tizimli yondashuv kabi ilmiy usullar qo'llanildi.

Tadqiqotning empirik bazasini O'zbekiston Respublikasi bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar (YaIM, yakuniy iste'mol, QQS tushumlari) tashkil etdi. Ushbu ma'lumotlar asosida xalqaro amaliyotda keng qo'llaniladigan indikatorlar formulalar orqali hisoblab chiqildi. Natijada qo'llanilgan metodologiya QQS tizimi samaradorligini kompleks baholash imkonini berdi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Xalqaro iqtisodiy tashkilotlar, jumladan, XVJ, IHTT hamda JB tomonidan QQS tizimining samaradorligini baholash uchun maxsus indikatorlar ishlab chiqilgan. Ushbu indikatorlar soliq bazasining qamrov darajasi va ma'muriyat samaradorligini baholash imkonini beradi. Tadqiqotda qo'llanilgan asosiy indikatorlar quyidagilar:

VAT Productivity ko'rsatkichi (1) QQS tushumlarining yalpi ichki mahsulotga nisbati orqali soliq stavkasining iqtisodiyotga ta'sirini baholash imkonini beradi. Ushbu indikator QQS stavkasining har bir foiz bandi iqtisodiyotdan qancha soliq tushumi shakllantirayotganini ko'rsatadi.

$$\text{VAT Productivity} = \frac{VR}{GDP \times S}, \quad (1)$$

bu yerda:

VAT Productivity – QQS tushumlarining yalpi ichki mahsulotga nisbati;

VR – QQS tushumlari;

GDP – yalpi ichki mahsulot;

S – QQSning amaldagi standart stavkasi.

Mazkur ko'rsatkich QQS tizimining umumiy samaradorligini baholashga xizmat qiladi. Agar ushbu indikator qiymati yuqori bo'lsa, bu QQS tizimi iqtisodiyotda yaratilgan qo'shilgan qiymatni samarali ravishda qamrab olayotganini anglatadi.



Implicit VAT Rate (2) (yashirin yoki real QQS stavkasi) iqtisodiyotdagi yakuniy iste'mol hajmiga nisbatan haqiqiy soliq yukini aks ettiradi. Ushbu indikator amaldagi QQS stavkasi bilan real soliq tushumlari o'rtasidagi tafovutni aniqlash imkonini beradi.

$$\text{Implicit VAT Rate} = \frac{VR}{FCE}, \quad (2)$$

bu yerda:

Implicit VAT Rate – yashirin yoki real QQS stavkasi;

VR – QQS tushumlari;

FCE– iqtisodiyotdagi yakuniy iste'mol xarajatlari hajmi.

Agar mazkur ko'rsatkich amaldagi QQS stavkasidan sezilarli darajada past bo'lsa, bu holat soliq imtiyozlari mavjudligi, ayrim tarmoqlarda nol stavka qo'llanilishi yoki yashirin iqtisodiyot ulushining yuqoriligi bilan izohlanishi mumkin.

QQS samaradorligini baholashda xalqaro iqtisodiy adabiyotlarda keng qo'llaniladigan "C-efficiency" tamoyillariga asoslangan va IHTT metodologiyasi asosida hisoblanadigan VRR (VAT Revenue Ratio) ko'rsatkichidan foydalaniladi. VRR ko'rsatkichi IHTT tomonidan keng qo'llaniladigan indikatorlardan biri bo'lib, QQS tushumlarining nazariy maksimal yig'ilishi mumkin bo'lgan tushumlarga nisbatan ulushini ifodalaydi. Ushbu indikator ham QQS tizimi samaradorligini baholashda muhim ahamiyatga ega. VRR (3) formula asosida hisoblanadi.

$$VRR = \frac{VR}{PTB \times S}, \quad (3)$$

bu yerda,

VRR – QQS tushumi koeffitsiyenti;

VR – haqiqiy QQS tushumlari;

PTB – potensial QQS bazasi;

S – QQS amaldagi standart stavkasi;

(3)-formuladai PTB – potensial soliq bazasini topish uchun yakuniy iste'mol xarajatlari (FCE)dan amaldagi QQS tushumlari (VR) ayirib tashlanadi

$$PTB = FCE - VR \quad (4)$$

Ushbu ko'rsatkich QQS tizimining umumiy samaradorligini aks ettirib, soliq bazasi qamrovi, imtiyozlar hajmi hamda soliq ma'muriyati samaradorligini bilvosita tavsiflaydi. Xalqaro amaliyotda VRR ko'rsatkichining nisbatan yuqori darajalari odatda 0,6 va undan yuqori diapazonda kuzatiladi.

Mazkur tadqiqotda QQS tizimi samaradorligini baholash uchun O'zbekiston iqtisodiyoti bo'yicha 2012–2024-yillar kesimidagi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlardan foydalanildi (1-jadval).

1-jadval. O'zbekiston bo'yicha QQS samaradorligini baholash uchun bazaviy ma'lumotlar<sup>1</sup>

Yil	YalM, mlrd so'm	Yakuniy iste'mol xarajatlari, mlrd so'm	QQS tushumlari, mlrd so'm	QQS stavkasi, %	QQS to'lovchilari soni
2012	142 333	111 439	5 967	20	10 353
2013	173 202	139 167	7 552	20	14 797
2014	210 998	168 648	9 476	20	13 331
2015	250 545	205 362	10 851	20	7 956
2016	290 213	245 244	11 892	20	8 329
2017	356 454	290 086	14 686	20	13 948
2018	494 815	380 094	27 877	20	38 745
2019	620 083	479 740	33 810	18,75	84 479
2020	705 077	532 855	31 177	15	115 572
2021	861 171	671 895	38 439	15	143 701
2022	1 041 878	845 710	52 189	15	174 069
2023	1 261 806	1 000 385	57 885	12	190 272
2024	1 535 432	1 228 343	59 280	12	201 023

Jumladan, yalpi ichki mahsulot (YalM), yakuniy iste'mol xarajatlari hajmi, davlat budjetiga tushgan QQS tushumlari hamda amaldagi QQS stavkalari to'g'risidagi statistik ma'lumotlar tahlilning empirik bazasini tashkil

<sup>1</sup> Davlat statistika qo'mitasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

etdi. Ushbu ma'lumotlar asosida xalqaro amaliyotda keng qo'llaniladigan quyidagi samaradorlik indikatorlari hisoblab chiqildi (2-jadval).

2-jadval. O'zbekiston QQS samaradorligi indikatorlari hisob-kitobi<sup>2</sup>

Yil	VAT Productivity	Implicit VAT Rate	VRR
2012	0,21	5,7	0,28
2013	0,22	5,7	0,29
2014	0,22	6,0	0,30
2015	0,22	5,6	0,28
2016	0,20	5,1	0,25
2017	0,21	5,3	0,27
2018	0,28	7,9	0,40
2019	0,29	7,6	0,40
2020	0,29	6,2	0,41
2021	0,30	6,1	0,40
2022	0,33	6,6	0,44
2023	0,38	6,1	0,51
2024	0,32	5,1	0,42

O'zbekiston iqtisodiyoti bo'yicha 2012–2024-yillar kesimida hisoblangan indikatorlar QQS tizimi samaradorligining vaqt o'tishi bilan sezilarli darajada oshganini ko'rsatadi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, VAT Productivity ko'rsatkichi 2012-yildagi 0,21 darajadan 2023-yilda 0,38 gacha oshgan. Bu esa QQS stavkasining har bir foizi orqali budjetga tushum samaradorligi sezilarli darajada ortganini anglatadi. Ayniqsa, 2018-yildan keyingi davrda ushbu ko'rsatkichning keskin oshishi mamlakatda soliq ma'murchiligining raqamlashtirilishi, xususan, elektron hisob-faktura tizimining joriy etilishi hamda soliq bazasining kengayishi bilan izohlanadi. Shu bilan birga, 2024-yilda ushbu ko'rsatkichning 0,32 gacha pasayishi QQS stavkasining pasayishi hamda ayrim soliq imtiyozlari ta'sirining kuchaygani bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Implicit VAT Rate ko'rsatkichi tahlil davrida 5,1% – 7,9% oralig'ida shakllangan. Ushbu ko'rsatkich 2018–2019-yillarda eng yuqori darajaga yetgan bo'lsa-da, keyingi yillarda pasayish tendensiyasi kuzatilmoqda. Mazkur holat QQSDan ozod etilgan operatsiyalar ulushining mavjudligi, "0" stavkali operatsiyalar kengligi va norasmiy iqtisodiyot segmentining saqlanib qolishi bilan izohlanadi. Natijada, amaldagi QQS stavkasi bilan solishtirganda real stavkaning pastligi soliq bazasining to'liq qamrab olinmaganligini ko'rsatadi, deb o'ylaymiz.

VRR ko'rsatkichi 2012-yildagi 0,28 darajadan 2023-yilda 0,51 gacha oshgan. Bu esa QQS tizimi samaradorligining sezilarli darajada yaxshilanganini anglatadi. Shu bilan birga, xalqaro tajribada (IHTT davlatlarida) VRR darajasi odatda 0,6–0,9 oralig'ida bo'lishini inobatga olsak, O'zbekistonda ushbu ko'rsatkich hali ham to'liq potensial darajaga yetmagan, deb aytishimiz mumkin (3-jadval).

3-jadval. Ayrim davlatlarda VRR ko'rsatkichlari<sup>3</sup>

Davlatlar	2018	2019	2020	2021	2022	Standart stavka
Yangi Zelandiya	0,95	0,95	1,02	0,98	0,96	15
Polsha	0,51	0,51	0,51	0,56	0,46	23
Vengriya	0,59	0,59	0,59	0,62	0,62	27
Chexiya	0,58	0,58	0,56	0,58	0,60	21
Slovakiya	0,52	0,53	0,51	0,53	0,52	22
Litva	0,53	0,54	0,56	0,59	0,60	21
Latviya	0,58	0,59	0,58	0,59	0,64	21
Estoniya	0,72	0,71	0,70	0,75	0,73	20
Turkiya	0,40	0,34	0,38	0,47	0,44	18
Meksika	0,32	0,31	0,35	0,35	0,33	16
Chili	0,66	0,64	0,63	0,74	0,71	19
IHTT o'rtacha	0,56	0,55	0,55	0,58	0,58	19,3
O'zbekiston	0,40	0,40	0,41	0,40	0,44	12

2 Statistik ma'lumotlar va tegishli formulalar asosida muallif tomonidan hisoblandi.

3 Consumption Tax Trends 2024. VAT/GST and Excise, Core Design Features and Trends. OECD Publishing, Paris, 2024. – p.111-112.




Yuqoridagi 3-jadvalda ayrim IHTT davlatlari bo'yicha QQS samaradorligini ifodalovchi VRR ko'rsatkichlari keltirilgan. IHTT metodologiyasiga muvofiq hisoblangan VRR ko'rsatkichi QQS tizimining fiskal samaradorligi va soliq bazasining qamrov darajasini mamlakatlar kesimida qiyosiy baholash imkonini beradi.

Taqqoslama tahlilda O'zbekiston uchun hisoblangan VRR natijalari (2-jadval) Sharqiy Yevropa davlatlari (Polsha, Chexiya, Slovakiya, Boltiqbo'yi mamlakatlari) va rivojlanayotgan IHTT davlatlari (Turkiya, Meksika, Chili) ko'rsatkichlari (3-jadval) bilan solishtirildi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonning VRR ko'rsatkichi 2018–2022-yillar davomida 0,40–0,44 oralig'ida shakllangan bo'lib, bu ko'rsatkich rivojlanayotgan davlatlar darajasiga yaqin, biroq IHTT mamlakatlari o'rtacha darajasidan (0,55–0,58) sezilarli darajada past ekanligini ko'rsatadi (1-rasm).

Xususan, Sharqiy Yevropa davlatlari – Polsha, Chexiya, Slovakiya hamda Boltiqbo'yi mamlakatlarida VRR ko'rsatkichlari asosan 0,50–0,70 oralig'ida bo'lib, ular O'zbekistonga nisbatan yuqoriroq samaradorlik darajasini namoyon etadi. Ayniqsa, Estoniya (0,70–0,75) va Latviya (0,58–0,64) kabi davlatlarda yuqori natijalar raqamli soliq ma'murchiligining rivojlanganligi, elektron hisob-faktura tizimlarining samarali ishlashi hamda soliq intizomining yuqori darajasi bilan izohlanadi. Shu bilan birga, Yangi Zelandiya tajribasi (0,95–1,02) deyarli ideal model sifatida e'tirof etilib, unda keng soliq bazasi, minimal imtiyozlar va soddalashtirilgan soliq tizimi asosiy omillar sifatida namoyon bo'ladi (1-rasm).



1-rasm. 2022-yilda ayrim davlatlar VRR ko'rsatkichlari<sup>4</sup>

Boshqa tomondan, O'zbekistonning VRR ko'rsatkichi Turkiya (0,34–0,47) va Meksika (0,31–0,35) kabi rivojlanayotgan davlatlar bilan deyarli bir xil yoki ayrim yillarda yuqoriroq darajada shakllangan bo'lib, bu mamlakatda so'nggi yillarda amalga oshirilgan soliq islohotlarining ijobiy natijalarini ko'rsatadi. Shu bilan birga, tahlil natijalari QQS stavkasi darajasi bilan tizim samaradorligi o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlik mavjud emasligini tasdiqlaydi. Masalan, Vengriyada yuqori stavka (27%) mavjud bo'lishiga qaramay, VRR 0,59–0,62 darajasida shakllangan bo'lsa, Yangi Zelandiyada nisbatan past stavka (15%) bilan ancha yuqori samaradorlikka erishilgan. Bu esa QQS tizimi samaradorligi, avvalo, soliq ma'murchiligi sifati, soliq bazasining kengligi va nazorat mexanizmlarining samaradorligiga bog'liqligini ko'rsatadi. Shu nuqtayi nazardan, O'zbekistonda mavjud 12 foizlik QQS stavkasi sharoitida ham VRR ko'rsatkichini oshirish uchun muhim ichki zaxiralar mavjud bo'lib, bu, eng avvalo, soliq imtiyozlarini optimallashtirish va raqamli nazorat tizimlarini yanada takomillashtirish orqali amalga oshirilishi mumkin.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda QQS tizimi samaradorligi so'nggi yillarda sezilarli darajada oshgan. Xususan, VAT Productivity va VRR ko'rsatkichlarining o'sishi soliq ma'murchiligini raqamlashtirish, elektron hisob-faktura tizimining joriy etilishi hamda soliq bazasining kengayishi bilan izohlanadi. Shu bilan birga, VRR ko'rsatkichining IHTT mamlakatlari o'rtacha darajasiga (0,55–0,58) yetmaganligi QQS tizimida hali foydalanilmagan ichki zaxiralar mavjudligini ko'rsatadi.

O'zbekistonda QQS tizimi samaradorligini yanada oshirish maqsadida quyidagilarni taklif qilamiz:

soliq imtiyozlarini optimallashtirish – imtiyozlar iqtisodiy samaradorlik nuqtayi nazaridan qayta ko'rib chiqilib, faqat strategik ahamiyatga ega tarmoqlarda saqlab qolinishi lozim;

4 2-jadval asosida muallif tominidan tuzildi.



soliq bazasini kengaytirish – norasmiy iqtisodiy faoliyatni qisqartirish va barcha iqtisodiy operatsiyalarni qamrab olish orqali QQS bazasini kengaytirish zarur;

raqamli soliq ma'murchiligini rivojlantirish – elektron hisob-faktura tizimini yanada takomillashtirish, real vaqt monitoringi va risk-tahlil tizimlarini keng joriy etish muhim hisoblanadi;

xalqaro tajribani joriy etish – samarali soliq tizimlari mavjud davlatlar (Yangi Zelandiya, Singapur, Yevropa Ittifoqi va b.) tajribasi asosida soddalashtirilgan va shaffof QQS tizimini shakllantirish tavsiya etiladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Ebrill L., Keen M., Bodin J.-P., Summers V. The Modern VAT. – Washington, D.C.: International Monetary Fund, 2001. – 241 p.
2. Keen M. The Anatomy of the VAT. IMF Working Paper WP/13/111. – International Monetary Fund, 2013.
3. Hutton E. The Revenue Administration – Gap Analysis Program: Model and Methodology for VAT Gap Estimation. IMF Technical Notes and Manuals, 2017.
4. Urazmatov J.M. Analysis of the methodology for assessing the effectiveness of the mechanism of taxation of added value. – Science and Innovation, 2023.
5. Niyazmetov I.M. Estimating Value Added Tax Gap in Uzbekistan. – Finance: Theory and Practice, Vol.27, No.2`2023.
6. Yusupov J. The Value Added Tax (VAT) Gap Analysis: Case Study of Uzbekistan. – Scientific Progress. Vol.2, 2021.
7. Consumption Tax Trends 2024. VAT/GST and Excise, Core Design Features and Trends. OECD Publishing, Paris, 2024.
8. OECD. International VAT/GST Guidelines. – Paris: OECD Publishing.
9. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. Rasmiy statistik ma'lumotlar.
10. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. Davlat budjeti ijrosi ma'lumotlari.

# **muhandislik**

# **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir Alibekov

**Sahifalovchi va dizayner:** Abdurahmon Qurbonov

---

**2026. № 4**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan  
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: №095310.**

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod  
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



[t.me/yait\\_2100](https://t.me/yait_2100)